

G'ARB PSIXOLOGIYASIDA INDIVIDUAL USLUB: BOLALAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNING NAZARIY ASOSLARI

Mo'minxo'jayeva Zuhra Alimjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrası o'qituvchisi

E-mail: zmuminxujayeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22766066>

Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 15-sentabr 2026-yil

Annotatsiya.

Mazkur tezisda G'arb psixologiyasida individual uslub tushunchasining shakllanishi va rivojlanishiga oid asosiy nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi. Alfred Adlarning hayot uslubi konsepsiyasi, Gordon Olportning xulq-atvor va shaxs uslubi haqidagi qarashlari, Aleksandr Tomas va Stella Chessning temperamentga asoslangan xulq-atvor uslubi hamda Herman Vitkinning kognitiv uslub nazariyasi qiyosiy tahlil qilinadi. Individual uslubni bolalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonida o'rganishda motivatsion, xulqiy-regulyativ va kognitiv komponentlarni integratsiyalash zarurligi asoslanadi.

Kalit so'zlar:

individual uslub, faoliyat uslubi, hayot uslubi, temperament, xulq-atvor uslubi, kognitiv uslub, bolalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, motivatsiya, adaptatsiya.

Individual farqlar psixologiyasida "uslub" tushunchasi insonning nima qilayotganidan ko'ra, faoliyatni qanday tashkil etishi, maqsadga qanday erishishi, tashqi sharoitlarga qanday moslashishi hamda axborotni qanday qabul qilib, qayta ishlashini ifodalashi bilan alohida ahamiyatga ega. G'arb psixologiyasida individual uslub yagona nazariy konstrukt sifatida emas, balki hayot uslubi, shaxs uslubi, xulq-atvor uslubi, temperament va kognitiv uslub kabi o'zaro bog'liq yo'nalishlar doirasida rivojlangan. Shu sababli bolalarning tengdoshlari bilan o'zaro faoliyatidagi individual uslubni tadqiq etishda mazkur nazariyalar imkoniyatlarini integrativ nuqtayi nazardan baholash muhimdir.

Individual uslub muammosining dastlabki yaxlit talqinlaridan biri Alfred Adler (Alfred Adler)ning individual psixologiyasida shakllangan. Adler "hayot uslubi"ni shaxs xulq-atvori, maqsadlari va rivojlanish yo'nalishini birlashtiruvchi nisbatan barqaror tizim sifatida izohlaydi [1]. Uning qarashlariga ko'ra, inson faoliyati kamlik hissini yengish, muvaffaqiyatga intilish va ijtimoiy manfaatlarning o'zaro ta'siri asosida tashkil topadi. Demak, uslub faqat tashqi xulq shakli emas, balki shaxsning maqsadlari, qadriyatlari va ijtimoiy muhitga munosabatini birlashtiruvchi psixologik mexanizmdir.

Adler konsepsiyasining bolalar psixologiyasi uchun muhim jihati shundaki, individual uslubning shakllanishi bolalik tajribasi, tarbiya, qadriyatlar va boshqalar bilan hamkorlikdagi faoliyat bilan bog'lanadi. Shaxs tomonidan shakllantirilgan faoliyat usuli muayyan sharoitda samarali bo'lishi, sharoit o'zgarganida esa o'zining avvalgi ko'rinishini saqlab qolishi mumkin. Bu individual uslubning bir vaqtning o'zida barqarorlik va rivojlanish imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Individual uslubning shaxs tuzilishi bilan bog'liqligi Gordon Olport (Gordon W. Allport) tadqiqotlarida yanada rivojlantirilgan. Olport shaxsni individning psixofizik tizimlarining dinamik tashkiloti sifatida tushuntirib, motivatsion xususiyatlarni faoliyatning yo'nalishini

belgilovchi, instrumental yoki uslubiy xususiyatlarni esa uning bajarilish shaklini belgilovchi jihatlar sifatida farqlaydi [2]. Bunday yondashuv asosida individual faoliyat uslubini biror alohida sifat yoki xulq belgisi bilan cheklab bo'lmaydi. U motivatsion va instrumental xususiyatlarning muayyan konfiguratsiyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Bolalarning o'zaro faoliyatini o'rganishda bu holat ayniqsa muhim. Masalan, ikki bola bir xil maqsadga ega bo'lsa ham, ulardan biri faol va tashabbuskor, ikkinchisi esa ehtiyotkor hamda kuzatuvchan strategiyani qo'llashi mumkin. Shunday ekan, faoliyat natijasi bilan bir qatorda uning amalga oshirilish usuli ham psixologik tadqiqot obyekti bo'lishi lozim.

Individual uslubni nisbatan barqaror biologik va psixologik xususiyatlar bilan bog'lovchi muhim yo'nalish temperament tadqiqotlari bilan bog'liq. Arnold Bass (Arnold H. Buss) va Robert Plomin (Robert Plomin) temperamentni erta shakllanuvchi, nisbatan barqaror individual xususiyatlar sifatida talqin qilgan bo'lsa [3], Aleksandr Tomas (Alexander Thomas) va Stella Chess (Stella Chess) temperamentning aynan xulq-atvorning "qanday" namoyon bo'lishini tavsiflovchi jihatlariga e'tibor qaratganlar [4].

Tomas va Chess modelida faollik darajasi, ritmiklik, yangi vaziyatga yaqinlashish yoki undan chekinish, moslashuvchanlik, reaksiya intensivligi, sezgirlik chegarasi, kayfiyat sifati, chalg'uvchanlik, diqqat davomiyligi va qat'iyatlilik kabi o'lchovlar ajratiladi. Ushbu yondashuvning metodologik afzalligi xulq-atvorning mazmuni va maqsadi bilan uning namoyon bo'lish shaklini farqlash imkoniyatidir. Bir xil ijtimoiy vazifani bajarayotgan bolalar faollik, moslashuvchanlik, qat'iyatlilik yoki reaksiyaning intensivligi jihatidan sezilarli darajada farqlanishi mumkin. Shu sababli temperament faoliyat uslubining muhim psixofiziologik asosi sifatida qaralishi mumkin, biroq individual uslubni faqat temperament bilan tenglashtirish metodologik jihatdan to'liq emas.

G'arb psixologiyasida individual farqlarni o'rganishning yana bir muhim yo'nalishi *kognitiv uslub* nazariyalaridir. Rayli Gardner (Riley W. Gardner), Duglas Jekson (Douglas N. Jackson) va Samuel Messik (Samuel J. Messick) tadqiqotlarida individual farqlar axborotni tanlash, tashkil qilish va qayta ishlash xususiyatlari bilan bog'langan [5]. Ushbu yo'nalish doirasida Herman Vitkin (Herman A. Witkin) tomonidan ishlab chiqilgan maydonga bog'liqlik va maydondan mustaqillik konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega [6].

Maydonga bog'liq individlar axborotni ko'proq yaxlit, sintetik shaklda qabul qilish hamda tashqi tayanchlarga suyanishga moyil bo'lsa, maydondan mustaqil individlarda elementlarni umumiy fondan ajratish, tahliliy qayta ishlash va ichki tayanchlardan foydalanish kuchliroq namoyon bo'ladi. Keyingi tadqiqotlarda mazkur farqlar faqat idrok jarayonlari emas, balki xotira, tushuncha hosil qilish va interpersonal munosabatlar bilan ham bog'langan. Bolalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir sharoitida bu xususiyatlar bolaning sheriklari fikriga qanchalik tayanishi, muammoni mustaqil hal qilishi yoki guruh kontekstiga moslashish strategiyalarida namoyon bo'lishi mumkin.

Tahlil etilgan konsepsiyalar shuni ko'rsatadiki, G'arb psixologiyasida individual uslubning turli jihatlarini bo'yicha katta hajmdagi nazariy va eksperimental bilimlar to'plangan. Biroq individual uslubning motivatsion, xulqiy, temperament va kognitiv darajalari ko'pincha bir-biridan alohida o'rganilgan. Natijada uning shakllanish mexanizmlari hamda turli darajalar o'rtasidagi funksional aloqalarni tushuntiruvchi yaxlit model yetarlicha rivojlantirilmagan.

Shu nuqtayi nazardan, bolalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonidagi individual faoliyat uslubini kamida uchta o'zaro bog'liq komponent asosida o'rganish maqsadga muvofiq.

Birinchisi - *motivatsion komponent* bo'lib, bolaning maqsad, hamkorlik, e'tirof, xavfsizlik va mustaqillikka bo'lgan yo'nalishini aks ettiradi. Ikkinchisi - *xulqiy-regulyativ komponent*, ya'ni faollik darajasi, tashabbuskorlik, moslashuvchanlik, qat'iyatlilik va reaksiyalar intensivligi. Uchinchi - *kognitiv komponent* bo'lib, o'zaro faoliyat davomida axborotni tanlash, tashkil etish, talqin qilish va muammoni hal etishning individual usullarini qamrab oladi.

Mazkur komponentlar o'zaro aloqador holda bolaning individual faoliyat uslubini tashkil qiladi. Bunda uslubning ayrim jihatlarini temperament yoki kognitiv predispozitsiyalarga bog'liq nisbatan barqaror xususiyat sifatida namoyon bo'lsa, boshqa jihatlarini birgalikdagi faoliyat, tengdoshlar talablari, o'zlashtirilgan qadriyatlar va takrorlanuvchi shaxslararo tajriba ta'sirida

shakllanishi mumkin. Shu sababli individual uslubni faqat tug'ma yoki faqat ijtimoiy hosila sifatida izohlash yetarli emas.

Xulosa qilib aytganda, G'arb psixologiyasida individual uslub konsepsiyasi hayot faoliyatining yaxlit yo'nalishini tavsiflashdan boshlab shaxs, temperament, xulq-atvor va kognitiv jarayonlardagi individual farqlarni tahlil qilishgacha bo'lgan murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. Adler, Olport, Tomas va Chess hamda Vitkin nazariyalarining qiyosiy tahlili individual uslubni faoliyatning takrorlanuvchi va nisbatan barqaror tashkil etilish usuli sifatida tushunish imkonini beradi. Bolalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tadqiq etishda esa individual uslubni motivatsion, xulqiy-regulyativ va kognitiv komponentlarning o'zaro integratsiyalashgan tizimi sifatida o'rganish nazariy va metodologik jihatdan istiqbolli hisoblanadi. Bunday yondashuv uslubning nisbiy barqarorligi bilan bir qatorda uning ijtimoiy tajriba ta'sirida o'zgarishi va rivojlanishini ham tushuntirish imkonini beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Adler A. *The Science of Living*. New York: Greenberg, 1929.
2. Allport G.W. *Pattern and Growth in Personality*. New York: Holt, Rinehart and Winston, 1961.
3. Buss A.H., Plomin R. *A Temperament Theory of Personality Development*. New York: Wiley, 1975.
4. Thomas A., Chess S. *Temperament and Development*. New York: Brunner/Mazel, 1977.
5. Gardner R.W., Jackson D.N., Messick S.J. *Personality Organization in Cognitive Controls and Intellectual Abilities*. New York: International Universities Press, 1960.
6. Witkin H.A., Goodenough D.R. *Cognitive Styles: Essence and Origins: Field Dependence and Field Independence*. New York: International Universities Press, 1981.